

**“Cashback_Osmon_activation_2026” aksiyasini
o‘tkazish qoidolari**

MUNDARIJA

1. Umumiy qoidalar;
2. Atama va ta’riflar;
3. Aksiya tashkilotchisi;
4. Aksiyada ishtirok etish tartibi;
5. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari;
6. Bankning huquq va majburiyatlari;
7. Mas’uliyat;
8. Nizolarni hal qilish tartibi;
9. Boshqa shartlar.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “TBC Bank” ATBning (keyingi o‘rinlarda – Bank) “Cashback_Osmon_activation_2026” nomli Aksiyasining (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) mazkur Qoidalar Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibini belgilab beradi.

1.2. Aksiya lotereya, tavakkalchilikka asoslangan o‘yin yoki ishtirok etish ishtirokchilar uchun mulkiy xavf-xatarlarning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tadbir hisoblanmaydi. Aksiyani o‘tkazish ishtirokchilardan ishtirok uchun biron-bir to‘lov undirilishini nazarda tutmaydi.

1.3. Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasiga muvofiq oferta hisoblanadi.

1.4. Aksiyaning amal qilish muddati:

Aksiyaning boshlanish sanasi: 10-sentabr;

Aksiyaning tugash sanasi: 10-oktabr.

Aksiyaning amal qilish muddati Boshlanish sanasidan to Tugash sanasigacha bo‘lgan davrni (shu kunlar ham kiradi) o‘z ichiga oladi.

1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

1.6. Mazkur Qoidalarining 2-bo‘limida belgilangan shartlarga mos keladigan har bir Mijoz Aksiya ishtirokchisi bo‘lishi mumkin.

1.7. Bank mahsulotlari va xizmatlarini olish, ulardan foydalanish tartibi va shartlari Bank mahsulotlari va xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha Bosh shartlar (keyingi o‘rinlarda – BSh), shuningdek, Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan boshqa shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1.8. Mazkur Qoidalarining 1.6-bandida bayon etilgan shartlarga mos keladigan Bank Mijozi ushbu ofertani akseptlagan (qabul qilgan) va Aksiyada ishtirok etish shartlariga o‘z roziligini bildirgan hisoblanadi.

2. ATAMA VA TA’RIFLAR

Aksiya	“Cashback_Osmon_activation_2026” aksiyasi
Aksiya o‘tkazilish davri	2026-yil 10-sentabrdan 2026-yil 10-oktabrgacha
Osmon card kredit kartasi / Karta	Bank tomonidan chiqarilgan karta bo‘lib, u o‘z saqllovchisiga emitent tomonidan belgilangan shartlarga muvofiq belgilangan kredit limiti doirasida to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish imkonini beradi.
1-maqсадli guruh — Ilgari faol bo‘lgan mijozlar	Bir vaqtning o‘zida quyidagi mezonlarga javob beradigan Bankning tasdiqlangan mijozi: (A) Aksiya boshlanish sanasida bloklanmagan va bekor qilinmagan amaldagi karta saqllovchisi bo‘lsa; (B) Aksiyaning boshlanish sanasidan bevosita oldingi 60 (oltmish) yoki undan ortiq kalendar kun ichida Bankning tranzaksiyalar tarixi ma’lumotlari bilan tasdiqlangan holda Karta orqali birorta ham Tranzaksiya amalga oshirmagan bo‘lsa;

2-maqсадli guruh — Tranzaksiyalari mavjud bo'lmagan mijozlar	Bankning bir vaqtning o'zida quyidagi mezonlarga javob beradigan verifikatsiyalangan mijozi: (A) Aksiya boshlangan sanada bloklanmagan va bekor qilinmagan faol kartaning saqllovchisi bo'lsa; (B) Karta Aksiya boshlanishidan kamida 60 (oltmish) kalendar kun oldin faollashtirilgan bo'lsa; (V) Kartani faollashtirish sanasidan to Aksiya boshlangan sanagacha bo'lgan davrda Karta bo'yicha birorta ham tranzaksiya amalga oshirmagan bo'lsa va bu holat Bankning tranzaksiyalar tarixi ma'lumotlari bilan tasdiqlansa.
Ishtirokchi	Bankning Karta bo'yicha tranzaksiyalar tarixi ma'lumotlari asosida 1-maqсадli guruhga yoki 2-maqсадli guruhga kiritilgan, Aksiya o'tkazilishi davrida Bankdan push-xabarnoma, SMS-xabar yoki telefon qo'ng'irog'i orqali Aksiyada ishtirok etish uchun shaxsiy taklifnoma olgan hamda ko'rsatilgan davr mobaynida Aksiya shartlariga muvofiq Tranzaksiyani amalga oshirgan mijozi.
Tranzaksiya	Aksiya o'tkaziladigan davrda savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarining POS-terminallarida Karta yordamida tovarlar va/yoki xizmatlar uchun amalga oshirilgan hamda Bankning tranzaksiyalar tarixida aks etgan naqd pulsiz to'lov (POS-xarid).
Joriy hisobvaraқ	O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki tartib-qoidalariga muvofiq Bankda ochilgan, pul mablag'larini saqlash va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish uchun mo'ljallangan Ishtirokchining bank hisobvaraқ'i.
Keshbek	Bank tomonidan Aksiya doirasida Ishtirokchiga mazkur qoidalariga asosan Karta yordamida amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun 1 birlik = 1 so'm hisobidan bonus tarzida taqdim etiladigan va Joriy hisobvaraқqa o'tkazib beriladigan shartli birlik.

3. AKSIYA TASHKILOTCHISI

3.1. Aksiyaning tashkilotchisi Bank hisoblanadi.

3.1.1. Bankning aloqa ma'lumotlari: O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, "Buyuk Turon" MFY, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 1-uy, Telefon: +99878 777 2727, elektron pochta: contact@tbcbank.uz.

4. AKSIYADA ISHTIROK ETISH TARTIBI

4.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Bankdan push-bildirishnoma, SMS-xabar yoki telefon qo'ng'irog'i orqali shaxsiy taklifnoma olgan Mijoz Aksiya o'tkazish davrida tranzaksiya amalga oshiradi.

4.2. Ishtirokchining tegishli Maqsadli guruhga mansubligiga qarab, Bank Keshbekni quyidagi tartibda hisoblaydi:

(A) 1-maqсадli guruh — Ilgari faol bo'lgan mijozlar: Ishtirokchiga Aksiya o'tkazish davrida amalga oshirilgan har bir Tranzaksiya summasidan 5% miqdorida Keshbek hisoblanadi. Hisoblanadigan Keshbekning umumiy miqdori 100 000 (yuz ming) so'mdan oshishi mumkin emas. Belgilangan chegaraga yetgach, keyingi Tranzaksiyalar uchun Keshbek hisoblanmaydi.

(B) 2-maqсадli guruh — Tranzaksiyalari bo'lmagan mijozlar: Ishtirokchiga Aksiya o'tkazish davrida amalga oshirilgan birinchi Tranzaksiya summasidan 100% miqdorida, biroq 100 000 (yuz ming) so'mdan oshmagan Keshbek hisoblanadi. Keshbek bir marta — birinchi Tranzaksiya uchun hisoblanadi. Ishtirokchining ushbu Aksiya doirasidagi keyingi Tranzaksiyalari Keshbek bilan mukofotlanmaydi.

4.3. Quyidagi shartlarga bir vaqtning o'zida rioya qilinganda, Bank Keshbekni Aksiya o'tkazish davridan keyingi oyning 20-sanasidan kechiktirmay Ishtirokchining Joriy hisobvaraқ'iga o'tkazib beradi:

(A) Tranzaksiya Aksiya o'tkazish davrida amalga oshirilgan va haqiqiy deb tan olingan bo'lsa;

(B) Ishtirokchining Aksiyadagi ishtiroki to'xtatib turilmagan yoki tugatilmagan bo'lsa.

5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Aksiya to'g'risidagi ma'lumotlarni mazkur Qoidalarda, Bosh Shartlarda va Bank bilan tuzilgan boshqa shartnomalarda nazarda tutilgan hajmda va tartibda olish;

5.1.2. Mazkur Qoidalariga muvofiq Aksiya ishtirokchisi maqomini olish.

5.2. Ishtirokchi zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

5.2.1. Aksiyada ishtirok etishdan oldin mazkur Qoidalar bilan tanishib chiqish. Aksiyada ishtirok etish ishtirokchining mazkur Qoidalar bilan tanishganligini tasdiqlaydi va ularning shartlariga to'liq hamda so'zsiz roziligini bildiradi.

6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Bank Aksiyaning mazkur Qoidalariga muvofiq o'tkazish majburiyatini oladi.

6.2. Bank Aksiyaning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirishga haqlidir. Muddatning uzaytirilishi to'g'risidagi ma'lumot 1.3-bandga muvofiq saytlarda joylashtiriladi va/yoki Mijozlarga mobil ilovaga bildirishnoma yuborish, SMS, push-bildirishnomalar va/yoki elektron pochta orqali, ammo bular bilan cheklanmagan holda, har qanday mavjud aloqa vositalari orqali yetkaziladi.

6.3. Aksiya Ishtirokchilarini identifikatsiyalash va suiiste'molliklarning oldini olish maqsadida Bank Ishtirokchilarning ma'lumotlarini, jumladan, anketa ma'lumotlari, hujjatlar, mijoz bilan o'zaro aloqa davomida olingan ma'lumotlarni, biroq bular bilan cheklanmagan holda, Aksiya maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur hajmda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda so'rashga va ularga ishlov berishga haqlidir. Bank O'zbekiston Respublikasining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik talablariga, shuningdek Bankning ichki tartib-qoidalariga muvofiq Ishtirokchini va/yoki operatsiyani tekshirish uchun zarur bo'lgan muddatga Keshbekni hisoblashni va/yoki to'lashni to'xtatib turishga haqlidir.

6.4. Bank bir tomonlama tartibda Aksiyaning o'tkazish Qoidalariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, 1.3-bandga muvofiq saytlarda Aksiya haqida qo'shimcha ma'lumotlarni e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6.5. Mijoz Keshbek berilishini faqat Bank Ishtirokchining ushbu Aksiya shartlariga muvofiqligini, shuningdek Ishtirokchi tomonidan suiiste'mollik, qoidabuzarlik alomatlari bo'lgan yoki boshqa shubhali yoxud noqonuniy xatti-harakatlar mavjud emasligini tekshirib bo'lganidan so'ng da'vo qila oladi.

Bank o'zining asosli fikriga ko'ra, Ishtirokchi quyidagi hollarda Keshbek berishni rad etishga haqlidir:

- mazkur Qoidalarini buzgan bo'lsa;
- Aksiya shartlaridan vijdotsizlik bilan foydalangan bo'lsa;
- g'ayriqonuniy foyda olishga qaratilgan harakatlarni sodir etgan bo'lsa;
- Aksiya shartlarini boshqacha tarzda suiiste'mol qilgan bo'lsa.

6.6. Mazkur Qoidalarining 6.5-bandida ko'rsatilgan hollarda Bank o'z ixtiyoriga ko'ra quyidagilarga haqlidir:

- a) Mijozning Aksiyada bundan keyin ishtirok etishini rad etish;
- b) Mijozni Aksiya bo'yicha Keshbek olish huquqidan mahrum qilish;
- v) Mijozning kelgusi aksiyalar, yutuqli o'yinlar va sodiqlik dasturlarida ishtirokini to'xtatib qo'yish yoki cheklash;
- g) Mijozning hisob qaydnomasi amal qilishini vaqtincha yoki butunlay to'xtatib qo'yish.

6.7. Aksiya shartlarini suiiste'mol qilish deb, jumladan, quyidagi harakatlar hisoblanadi:

- bir necha shaxs tomonidan yoki bir shaxsning o'zi tomonidan bir nechta hisob qaydnomasi yaratilishi;
- Aksiyada ro'yxatdan o'tish yoki ishtirok etish vaqtida ishonchsiz, yolg'on yoki soxta ma'lumotlar taqdim etilishi;
- ijtimoiy tarmoqlar, internet-saytlar, forumlar, qidiruv tizimlarida yoxud ma'lumotni ommaviy joylashtirish va/yoki ommaviy tarqatishning boshqa usullari orqali ishonchsiz, noqonuniy yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarning tarqatilishi;
- hisob qaydnomasi egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga unga kirish huquqining berilishi.

7. MAS'ULIYAT

7.1. Agar ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmasligi Aksiya amal qilish muddati davomida axborot yoki dasturiy tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar, shuningdek, uchinchi shaxslarning, shu jumladan hamkorlar va tadbirkorlarning harakatlari (harakatsizligi) natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, Bank javobgar bo'lmaydi.

7.2. Bank Aksiyada ishtirok etish doirasida Ishtirokchilarning harakatlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

7.3. Ushbu Qoidalarining 7.1-bandida ko'rsatilgan hollarda, Bank o'z tizimlarida, shuningdek, Aksiyani amalga oshirishda ishtirok etuvchi hamkorlar yoki xizmat ko'rsatuvchi provayderlar tizimlarida yuzaga kelgan texnik nosozliklar, xatolar va boshqa kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarini mustaqil belgilashga haqli.

7.4. Agar majburiyatlarni bajara olmaslik uchinchi shaxslarning, jumladan, hamkorlar, yetkazib beruvchilar va boshqa kontragentlarning ushbu Aksiya shartlarini buzishga olib kelgan qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatidagi harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Bank ushbu Qoidalar bo'yicha majburiyatlarni bajara olmaganligi uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Bosh Shartlar, Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etilishi lozim.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu Qoidalaridan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Tomonlar o'rtasidagi o'zaro maslahatlashuvlar va muzokaralar asosida sudgacha hal etilishi lozim. Da'vo qilish tartibi nizolarni ko'rib chiqish uchun majburiy shart hisoblanadi.

8.2. Agar Tomonlar ushbu Qoidalarining 8.1-bandida nazarda tutilgan tartibda nizoli masalalar bo'yicha kelishuvga erisha olmasalar, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Bank ro'yxatdan o'tgan joydagi sud tartibida hal etilishi lozim.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu Qoidalar Bankning www.tbcbank.uz veb-saytida joylashtirilgan.

9.2. Aksiya ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan saytda joylashtirilgan o'zgarishlar va yangilanishlarni muntazam ravishda tekshirib, Aksiya shartlarining dolzarbligini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.

9.3. Bank Mijoz mavjud aloqa kanallari orqali Bankka tegishli bildirishnoma yuborish orqali ushbu Aksiyada ishtirok etishni rad etish huquqiga ega.

9.4. Bankning affilangan shaxslari Aksiyada ishtirok etish huquqiga ega emas.